

## LINGVOKULTUROLOGIYA VA GASTRONOMIYA O'RTASIDAGI ALOQADORLIK

*Kamalova Madina, Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

### ВЗАЙМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЕЙ И ГАСТРОНОМИЕЙ

*Камалова Мадина, преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандинского государственного университета*

### THE RELATIONSHIP BETWEEN LINGUOCULTUROLOGY AND GASTRONOMY

*Kamalova Madina, Lecturer at the Kattakurgan Branch of Samarkand State University*



<https://orcid.org/0009-0000-0592-7647>  
e-mail:  
[kamalova11@bk.ru](mailto:kamalova11@bk.ru)

**Annotatsiya:** Lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni o'rjanadigan ko'ptarmoqli soha. U til birliklarining madaniy xususiyatlar, qadriyatlar, an'analar va xalqning odatlarini qanday aks ettirishini tadqiq etadi. Bu kontekstdagi gastronomiya, madaniyatning bir qismi sifatida, til obrazlari va tushunchalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini o'rjanadi.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, gastronomiya, madaniyat, til birliklari, iboralar.

**Abstract:** Linguoculturology is a multidisciplinary field that studies the relationship between language and culture. It studies how language units reflect cultural characteristics, values, traditions, and customs of the people. Gastronomy in this context, as part of culture, plays an important role in the formation of language images and concepts. Linguoculturology studies the relationship between language and culture.

**Keywords:** linguoculturology, gastronomy, culture, language units, phrases.

**Аннотация:** Лингвокультурология — это междисциплинарная область, изучающая взаимосвязь языка и культуры. Она изучает, как языковые единицы отражают культурные особенности, ценности, традиции и обычаи народа. Гастрономия в этом контексте, как часть культуры, играет важную роль в формировании языковых образов и концепций. Лингвокультурология изучает взаимосвязь языка и культуры.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, гастрономия, культура, языковые единицы, фразы.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Til va madaniyat tushunchasi chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Til ma'lum bir madaniyatni, xalqning yashash tarzini, o'ziga xosligini ifoda etadi. O'zbek olimalari D.U.Ashurova va M.R.Galiyeva o'z ilmiy tadqiqotlarida lingvokulturologiyada madaniyatning tilda aks etishi va qanday qilib til orqali ma'lum bir madaniyatga oid ma'lumotlarning ifodalanishi, saqlanishi va yetkazilishi o'rganilishini ta'kidlashgan: "The subject matter of

Linguoculturology is to study relationships between language and culture, the ways how culture is presented in language and how language presents, stores and transmits cultural information"[1].

**ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** "Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va bu muammoning yechimini topishga qaratilgan dastlabki urinishlar nemis olimi V.Fon Gumboldt

asarlarida kuzatiladi. U yaratgan ta'limotining asosiy xulosalari quyidagilar:

Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda o'z aksini topadi;

Har qanday madaniyat uning milliy tilida namoyon bo'ladi"[2].

Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarni ajratib olib bir xil turdag'i komponentlar bilan solishtirish va iboralarni alohida semantik sohalarda ko'rib chiqish dunyoning ingliz va o'zbek tillaridagi tasviri o'rtaqidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar xalq xarakterini aks ettiradi va tilda ham o'z xalqonaligini ta'minlaydi. Faqat ingliz yoki o'zbek tiliga xos bo'lgan o'ziga xoslik va xususiyatlар ularni bir-biridan ajratishga imkon beradi.

Professor Sh.Rahmatullayev ilmiy izlanishlariga ko'ra, "Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zlardan (leksemalardan) tarkib topadi. Shunga ko'ra, ifoda plani deb so'zlar (leksemalar) shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Tarkibli morfema va leksemaning ma'nosi odatda, uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalananadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi"[3]. Darhaqiqat, ibora so'z, qo'shma so'z kabi tayyor nutq materiali, ma'noviy butunligiga ega frazeologik birlikdir.

Nemis olimi V.Fon Gumboldt o'z ilmiy asarlarida til va madaniyat munosabatlari haqidagi fikrlarini davom ettirib, inson tili unga predmet haqidagi ma'lumotni qay tarzda yetkazsa, shu bilan yashashini va har qanday til shaxs mansub bo'lgan xalqni, uning yashash tarzini ifoda etishini ta'kidlab o'tgan[4].

**MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION.** Shuni ta'kidlash joizki, lingvokulturologiya madaniy kodlarni ham o'rganadi. Madaniy kodlar — bu biror madaniyatga xos bo'lgan tushunchalar, an'analar va qadriyatlar to'plamidir. Bu kodlar til orqali ifodalanadi va xalqning dunyoqarashini, urfodatlarini va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Til ichidagi metaforalar va frazeologik birliklar madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, ayrim iboralar yoki metaforalar ma'lum bir madaniyatga xos bo'lib, boshqa madaniyatlarda umuman boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. Lingvokulturologiya ushbu jihatlarni tadqiq etadi.

Ovqatlanish madaniyati ham lingvokulturologiyaning muhim jihatlaridan biridir. Har bir xalqning o'ziga xos taomlari, ovqat tayyorlash usullari va ovqatlanish an'analari til orqali ifodalanadi. Masalan, ma'lum taomlar, ingrediyyentlar va ovqatlanish odatlari til birliklarda aks etadi. Til, milliy identifikatsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Har bir xalq o'z tilida o'z madaniyatini, tarixini va an'analarini aks ettiradi. Lingvokulturologiya, til orqali milliy va madaniy identifikatsiyani o'rganadi. Lingvokulturologiya tilning ijtimoiy va siyosiy kontekstda qanday ishlatalishini ham o'rganadi. Til, ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat va ideologiyalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Til orqali ijtimoiy guruhlar o'rtaqidagi aloqalar va qarama-qarshiliklar ko'rindi. Til va madaniyat o'rtaqidagi o'zaro ta'sirlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Lingvokulturologiya, til o'zgarishlarini, yangi so'zlar va iboralarning paydo bo'lishini, shuningdek, madaniy almashuv jarayonlarini o'rganadi [2].

Gastronomiya — bu ovqatlar, ularni tayyorlash, iste'mol qilish va madaniy kontekstdagi ahamiyatini o'rganadigan ilmiy va amaliy soha. Ushbu soha nafaqat taom tayyorlash jarayonini, balki ovqatlanish an'analari, madaniy xususiyatlarni oziq-ovqat bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Gastronomiya, shuningdek, taomlarning ta'mi, ko'rinishi, tuzilishi va ovqatlanish odatlari bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlarni o'rganadi. Gastronomiya, taomlarni tayyorlash usullarini o'rganadi. Bu jarayon, ingrediyyentlarni tanlashdan tortib, ularni qanday tayyorlash va bezashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir oshxona o'ziga xos usullarga ega bo'lib, bu esa gastronomik xilmassislikni yaratadi. Gastronomiya ingredientlarga katta ahamiyat beradi. Oziq-ovqat mahsulotlari, ularning sifatlari, yangi yoki organik bo'lishi, mahalliy yoki import qilinganligi kabi jihatlar taomning ta'mi va sifatiga ta'sir qiladi. Gastronomiya tarixiy jihatdan qadimi davrlarga borib taqaladi. Dastlabki ovqat tayyorlash usullari va ingrediyyentlar o'simliklar va hayvonlardan foydalanishga asoslangan. Vaqt o'tishi bilan, turli madaniyatlar o'rtaqidagi gastronomik tajriba almashinuv yuz berdi, bu esa yangi taomlar va usullarni keltirib chiqardi. Masalan, Yevropaga kiritilgan yangi ingrediyyentlar,

masalan, pomidor va kartoshka, mahalliy oshxonalarini tubdan o'zgartirdi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Gastronomiya o'ziga xos terminlar va tushunchalarga ega bo'lib, bu esa madaniy an'analar va ovqatlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, taomlar, ingrediyyentlar va tayyorlash usullari madaniy aloqlar va ramzlarni o'z ichiga oladi. Ovqatlanish an'analar ko'pincha milliy identifikasiyaning muhim elementi sifatida xizmat qiladi. Masalan, ma'lum taomlar ma'lum hududlar yoki xalqlar bilan bog'liq bo'lib, bu til orqali ifodalanadi. "Patir" yoki "osh" kabi atamalar nafaqat ovqatni, balki madaniy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi[3].

Tilda gastronomiya bilan bog'liq ko'plab metaforalar va frazeologizmlar mavjud. Masalan, inson sifatlarini ovqat orqali tasvirlaydigan iboralar (masalan, "bo'sh qozon" yoki "shirin hayot") gastronomik tushunchalarining kundalik tilga kirib borishini ko'rsatadi.

Lingvokulturologiya gastronomik amaliyotlar va odatlarning tilga qanday aks etishini o'rganadi. Masalan, ma'lum taomlar bilan bog'liq bayramlar o'z nomlari va rituallariga ega bo'lib, bu til orqali ifodalanadi. Taom tayyorlashga bag'ishlangan adabiyotlar ham lingvokulturologiyaning muhim jihatni hisoblanadi. Retseptlar, oshpazlik kitoblari va maqolalar til, uslub va madaniy kontekst nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi mumkin [4]. Lingvokulturologiyani gastronomiya kontekstida o'rganish, ovqat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tushunishga imkon beradi, shuningdek, madaniy xususiyatlarning tilda qanday aks etishini ko'rsatadi.

#### **Taomlar va ingrediyyentlar:**

**Appetizer** – zakuska;

**Entrée** - asosiy taom;

**Dessert** – shirinlik;

**Garnish** – bezak;

**Marinade** – marinad;

**Sauce** – sous;

**Herbs** - o'tlar;

**Spices** – ziravorlar;

**Vegetables** – sabzavotlar;

**Fruits** – mevalar.

#### **Tayyorlash usullari:**

**Boil** – qaynatish;

**Bake** – pishirish;

**Fry** – qovurish;

**Grill** - grillda pishirish;

**Steam** - bug'da pishirish;

**Roast** - qovurish (duxovkada);

**Saute** - qovurish (kam yog'da);

**Blanch** - qaynoq suvda tez pishirish.

#### **Taomlarning xususiyatlari:**

**Savory** - to'yimli, to'yintiruvchi;

**Sweet** – Shirin;

**Bitter** - g'ovak;

**Sour** – kislorod;

**Spicy** – ziravorli;

**Umami** - umami (ta'm) [1].

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va qiziqarli aloqalarni o'rganadigan soha. U, til orqali madaniyatni, an'analarini va ijtimoiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Ushbu soha, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Lingvokulturologiya yordamida biz tilning nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniyatni aks ettiruvchi kuchli vosita ekanligini anglaymiz.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES):**

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent. VneshInvestProm, 2019.
2. Kholmuradova L. Analysis of the phraseological foundation of the English language and the influence of the French language on its development. European Journal of Molecular & Clinical Medicine Volume 07, Issue 06, 2020. – Pp.3089-3097.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978. – 407 b.
4. Xolmatova M. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiylarini tahlili. Academic Research in Educational Sciences. Volume 2.Issue 12,2021. – B.1391-1397.